

Jamshidbek Niyazbekov

*O'zbekiston Respublikasi
madaniyat vaziri maslahatchisi
E-mail: j_niyazbekov@umail.uz*

KREATIV IQTISODIYOTNI MADANIYAT MARKAZLARI FAOLIYATIGA JORIY ETISH AMALIYOTLARI, XORIJIY TAJRIBA VA O'ZBEKISTON UCHUN IMKONIYATLAR

***Annotatsiya.** Mazkur ilmiy maqolada kreativ sanoat tushunchasi, uning asosiy tarmoqlari hamda madaniyat markazlari faoliyatidagi o'rni va ahamiyati ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Bugungi globallashuv va raqamli iqtisodiyot sharoitida madaniyat markazlarini faqat an'anaviy madaniy tadbirlar o'tkaziladigan maskan sifatida emas, balki kreativ g'oyalar, innovatsion loyihalar va ijodiy tashabbuslar markazi sifatida rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Maqolada O'zbekiston tajribasi asosida madaniyat markazlari faoliyatiga kreativ sanoat elementlarini joriy etishning samarali mexanizmlari yoritiladi.*

***Kalit so'zlar:** kreativ sanoat, madaniyat markazlari, kreativ iqtisodiyot, madaniy xizmatlar, innovatsiya, ijodkorlik.*

PRACTICES OF INTEGRATING THE CREATIVE ECONOMY INTO THE ACTIVITIES OF CULTURAL CENTERS: FOREIGN EXPERIENCE AND OPPORTUNITIES FOR UZBEKISTAN

***Abstract.** This scientific article analyzes the concept of the creative industry, its main sectors, as well as its role and significance in the activities of cultural centers from both theoretical and practical perspectives. In the context of globalization and the digital economy, it is becoming increasingly important to develop cultural centers not merely as venues for organizing traditional cultural events, but as hubs for creative ideas, innovative projects, and artistic initiatives. Based on the experience of Uzbekistan, the article highlights effective mechanisms*

for incorporating elements of the creative industry into the operations of cultural centers.

Keywords: *creative industry, cultural centers, creative economy, cultural services, innovation, creativity.*

So'nggi yillarda dunyo miqyosida kreativ sanoat va kreativ iqtisodiyot tushunchalariga bo'lgan e'tibor keskin oshdi. Kreativ sanoat madaniyat, san'at, dizayn, media, axborot texnologiyalari va intellektual faoliyat bilan bog'liq sohalarni qamrab olib, iqtisodiy o'sishning muhim drayverlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

Ayniqsa, madaniyat markazlari faoliyatida kreativ sanoat tarmoqlarini rivojlantirish aholining madaniy faolligini oshirish, yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish hamda hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojiga xizmat qilmoqda.

Kreativ sanoat – bu insonning ijodiy salohiyati, bilim va mahoratiga asoslangan, intellektual mulk yaratish va undan iqtisodiy foyda olishga qaratilgan faoliyat turlarining majmuidir. Xalqaro tashkilotlar, xususan, UNESCO va UNCTAD tomonidan kreativ sanoatga musiqiy va sahna san'ati, kino va audiovizual mahsulotlar, dizayn, moda, nashriyot, reklama, hunarmandchilik hamda raqamli media yo'nalishlari kiritiladi.

Madaniyat markazlari zamonaviy jamiyatda nafaqat aholiga an'anaviy madaniy xizmatlar ko'rsatish, balki ijodiy salohiyatni rivojlantirish, innovatsion tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash va kreativ iqtisodiyot subyektlarini shakllantirishda muhim institutsional platforma sifatida namoyon bo'lmoqda. UNESCO ta'rifiga ko'ra, madaniy institutlar kreativ sanoatni rivojlantirishda **“ijtimoiy innovatsiyalar va madaniy tadbirkorlikni rag'batlantiruvchi asosiy muhit”** hisoblanadi [1].

Kreativ sanoat elementlarini madaniyat markazlari faoliyatiga joriy etish ushbu muassasalarning funksional doirasini sezilarli darajada kengaytiradi.

Xususan, madaniyat markazlari yosh ijodkorlar, dizaynerlar, musiqachilar, hunarmandlar va media mutaxassislar uchun ochiq ijodiy makon – **kreativ platforma** vazifasini bajaradi. Bu jarayonda madaniyat markazlari ijodiy mahsulot ishlab chiqarish, uni targ'ib qilish va tijoratlashtirishning dastlabki bosqichlarini ta'minlovchi "**kreativ ekotizim**"ning muhim bo'g'iniga aylanadi [2].

Ilmiy tadqiqotlarda ta'kidlanishicha, kreativ sanoatning madaniyat markazlari faoliyatiga integratsiyasi aholining, ayniqsa yoshlarning madaniy faolligini oshiradi, ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishga xizmat qiladi hamda ijtimoiy inklyuziya jarayonlarini jadallashtiradi [4]. Shu bilan birga, bunday yondashuv madaniyat markazlarining iqtisodiy barqarorligini mustahkamlash, qo'shimcha daromad manbalarini shakllantirish va hududiy rivojlanishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Madaniyat markazlari huzurida kreativ studiyalar, media-laboratoriyalar, dizayn va hunarmandchilik ustaxonalari, musiqa va sahna san'ati maktablarini tashkil etish orqali kreativ sanoatning amaliy komponentlari izchil rivojlantiriladi. Tadqiqotchilarning fikricha, bunday model "**madaniyat – ta'lim – iqtisodiyot**" o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ta'minlab, madaniy xizmatlarning sifat jihatidan yangilanishiga olib keladi [3].

Demak, madaniyat markazlari faoliyatida kreativ sanoatning rivojlanishi nafaqat madaniy-ma'rifiy vazifalarni samarali bajarishga, balki innovatsion iqtisodiyot sharoitida raqobatbardosh ijodiy kadrlarni tayyorlash va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini oshirishga xizmat qiluvchi muhim omil hisoblanadi.

Kreativ iqtisodiyotni mamlakatimiz madaniyat markazlari faoliyatiga joriy etish, avvalo, ushbu muassasalarning funksional modelini tubdan yangilashni talab etadi.

An'anaviy yondashuvda madaniyat markazlari asosan madaniy-ma'rifiy tadbirlar o'tkaziladigan maskan sifatida faoliyat yuritgan bo'lsa, zamonaviy sharoitda ular ko'p funksiyali kreativ platformaga aylanishi lozim. Bunday platforma doirasida media-studiyalar, dizayn va hunarmandchilik ustaxonalari,

musiqiy va sahna san'ati laboratoriyalari, shuningdek, raqamli kontent ishlab chiqarish maydonlarini tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xorijiy tajribalar shuni ko'rsatadiki, kreativ iqtisodiyotning madaniyat markazlari orqali rivojlanishi aholining, ayniqsa yoshlarning ijodiy faolligini oshiradi hamda ularning bandligini ta'minlashga xizmat qiladi. Masalan, **Buyuk Britaniyada** madaniyat muassasalari negizida tashkil etilgan kreativ xablar yosh ijodkorlar va startaplarni qo'llab-quvvatlash, ularni bozorga chiqarish hamda biznes ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali mexanizm sifatida faoliyat yuritmoqda. British Council tadqiqotlarida kreativ xablar **“ijodkorlik va tadbirkorlik o'rtasidagi ko'pri”** sifatida baholanadi [5].

Janubiy Koreya tajribasi ham mazkur yo'nalishda e'tiborga molikdir. Ushbu mamlakatda “Living Culture Centers” modeli asosida aholining o'zi bevosita ishtirok etadigan ijodiy faoliyat turlari rivojlantirilmoqda.

Mazkur markazlar professional san'atkorlarga emas, balki havaskor ijodkorlar uchun ham ochiq bo'lib, musiqiy mashg'ulotlar, media kontent yaratish, dizayn va hunarmandchilik faoliyatini qo'llab-quvvatlaydi. Natijada madaniyat markazlari jamiyatda kreativ madaniyatni shakllantiruvchi asosiy institutga aylanmoqda [6].

Shuningdek, **Yevropa mamlakatlarida** keng tarqalgan **“kreativ xablar tarmog'i”** modeli madaniyat markazlari faoliyatini iqtisodiy jihatdan barqarorlashtirishga xizmat qilmoqda. European Creative Hubs Network ma'lumotlariga ko'ra, kreativ xablar mahalliy iqtisodiyot, turizm va innovatsion biznes rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, madaniy xizmatlar sifatini yangi bosqichga olib chiqadi [7].

Mazkur tajribalarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda ham madaniyat markazlari faoliyatiga kreativ iqtisodiyot elementlarini bosqichma-bosqich joriy etish uchun keng imkoniyatlar mavjud. Jumladan, madaniyat markazlari huzurida kreativ studiyalar va laboratoriyalar tashkil etish, yosh ijodkorlar uchun rezidentlik dasturlarini joriy etish, davlat-xususiy sheriklik asosida

kreativ loyihalarni moliyalashtirish hamda madaniy kontentni tijoratlashtirish mexanizmlarini yo'lga qo'yish muhim hisoblanadi. Kreativ sanoatni madaniyat markazlari faoliyatiga joriy etish jarayoni bir qator tizimli muammolar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ushbu omillar mazkur yo'nalishning samarali rivojlanishini ma'lum darajada cheklab kelmoqda.

Ta'kidlash joizki, avvalo kadrlar salohiyati masalasi dolzarb muammo sifatida namoyon bo'lmoqda. Aksariyat madaniyat markazlarida kreativ iqtisodiyot, madaniy menejment, marketing, raqamli texnologiyalar va media kontent ishlab chiqarish yo'nalishlarida yetarli malakaga ega mutaxassislarning yetishmasligi kuzatiladi. Bu holat kreativ tashabbuslarni amaliyotga tatbiq etish, ularni tijoratlashtirish va barqaror rivojlantirish jarayonlarini sekinlashtirmoqda.

Moddiy-texnik bazaning zamonaviy talablar darajasida emasligini qayd qilish lozim. Kreativ sanoatni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan media jihozlar, raqamli texnologiyalar, kreativ ustaxonalar va laboratoriyalar bilan ta'minlanganlik darajasi hududlar kesimida notekis bo'lib qolmoqda. Natijada madaniyat markazlari kreativ mahsulotlar ishlab chiqarish va raqobatbardosh xizmatlar ko'rsatish imkoniyatlaridan to'liq foydalana olmayapti [2].

Shuningdek, moliyalashtirish mexanizmlarining yetarli darajada diversifikatsiya qilinmaganligi ham muhim to'siqlardan biri hisoblanadi. Amaldagi moliyalashtirish tizimi asosan byudjet mablag'lariga tayanib qolayotgani sababli kreativ loyihalarni uzoq muddatli va barqaror asosda amalga oshirish imkoniyatlari cheklanmoqda. Bu esa madaniyat markazlarining iqtisodiy mustaqilligini ta'minlash va kreativ iqtisodiyot subyekti sifatida shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Mazkur muammolarga qaramay, kreativ sanoatni madaniyat markazlari faoliyatiga joriy etish istiqbollari yetarlicha kengdir. Xususan, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini rivojlantirish orqali moddiy-texnik bazani mustahkamlash, xizmatlar ko'lamini kengaytirish va innovatsion loyihalarni moliyalashtirish imkoniyatlarini oshirish mumkin. Bunday hamkorlik modeli xorijiy tajribada madaniy infratuzilmani rivojlantirishning samarali vositasi sifatida e'tirof etilmoqda.

Shu bilan birga, xalqaro grantlar, donorlik dasturlari va madaniy hamkorlik loyihalarini jalb etish orqali kadrlar tayyorlash, malaka oshirish va ilg'or tajribalarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, UNESCO, British Council, ISESCO va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda amalga oshiriladigan dasturlar madaniyat markazlarida kreativ iqtisodiyot elementlarini rivojlantirishga xizmat qilishi mumkin.

Demak, mavjud muammolarni tizimli va bosqichma-bosqich hal etish, zamonaviy boshqaruv yondashuvlarini joriy etish hamda moliyalashtirish manbalarini kengaytirish orqali madaniyat markazlari faoliyatida kreativ sanoatni rivojlantirishning mustahkam poydevorini yaratish mumkin. Bu esa kelgusida mazkur muassasalarning ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy samaradorligini sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, kreativ iqtisodiyotning madaniyat markazlari faoliyatiga tizimli ravishda integratsiya qilinishi ushbu muassasalarni zamonaviy talablar va globallashtirish jarayonlariga mos, raqobatbardosh hamda barqaror rivojlanayotgan madaniy institutlarga aylantirish uchun mustahkam asos yaratadi. Bunday yondashuv madaniyat markazlarining an'anaviy funksiyalarini kengaytirib, ularni nafaqat madaniy-ma'rifiy xizmatlar ko'rsatuvchi maskan, balki ijodiy mahsulotlar ishlab chiqarish, innovatsion g'oyalarni qo'llab-quvvatlash va kreativ tashabbuslarni iqtisodiy qiymatga aylantirish imkonini beruvchi ko'p funksiyali platforma sifatida shakllantiradi.

Kreativ iqtisodiyot elementlarining joriy etilishi madaniy xizmatlar ko'lamini sifat jihatidan boyitib, aholining, ayniqsa yoshlar va ijodkor qatlamning madaniy hayotda faol ishtirokini ta'minlaydi. Bu esa jamiyatda ijtimoiy faollik, ijodiy fikrlash va innovatsion madaniyatni rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, madaniyat markazlari qoshida kreativ studiyalar, xablar va rezidentlik dasturlarining tashkil etilishi yoshlarning mehnat bozoriga mos ko'nikmalarini shakllantirish, ularning bandligini ta'minlash hamda ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun muhim shart-sharoit yaratadi.

Iqtisodiy jihatdan olib qaralganda, kreativ iqtisodiyotning madaniyat markazlari faoliyatiga kirib kelishi mazkur muassasalarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, qo'shimcha daromad manbalarini shakllantirish hamda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini rivojlantirish imkonini beradi. Bu jarayon, o'z navbatida, hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini oshirish, mahalliy brendlar va kreativ mahsulotlarni rivojlantirish orqali hududiy raqobatbardoshlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Demak, kreativ iqtisodiyotni madaniyat markazlari faoliyatiga joriy etish O'zbekistonda madaniy siyosatni modernizatsiya qilish, ijodiy inson kapitalini rivojlantirish va barqaror ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga erishishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ushbu yo'nalishdagi tizimli yondashuv va ilmiy asoslangan amaliy mexanizmlar kelgusida madaniyat markazlarining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada kuchaytirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. UNESCO. *Kreativ iqtisodiyot bo'yicha hisobot*. – Parij: Publisher, 2013. – 184 b.
2. UNCTAD. *Kreativ sanoatlar va rivojlanish*. – Nyu-York: United Nations Trade and Development (UNCTAD), 2018. – 445 b.
3. O'zbekiston Respublikasi. *Madaniyat sohasiga oid normativ-huquqiy hujjatlar*. 2025.
4. Florida R. *Kreativ sinfnining yuksalishi*. – Nyu-York: Basic Books, 2014. – 483 b.
5. Howkins J. *Kreativ iqtisodiyot: g'oyalardan qanday qilib daromad olinadi*. – London: Penguin Books Ltd, 2019. – 304 b.
6. European Creative Hubs Network. *Kreativ xablar bo'yicha hisobot*. – Bryussel: European Commission, 2018. – 20 b.
7. Koreya Respublikasi Madaniyat, sport va turizm vazirligi. *"Living Culture Centers"* (Hayotiy madaniyat markazlari) siyosati. 2020.